



“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMY-TADQIQOT INSTITUTI

OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

elektron ilmiy jurnal

3/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinnbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

FARFIYEV Bahromjon Atxamdjjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

ISHQUVATOV Valiqlul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*

KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

MUSLIMOV Narzulla Alixanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

NURMATOVA Mukharram Akhmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*

NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

ATAMURATOV Rasuljon Kadirkhonovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

SODIQOVA Shohida Marhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

ZOHIDOV Azamatjon A'zamovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*

Мусурманова Айниса Мусурмановна (*Заместитель главного редактора*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

Абдураманов Хамид Худайбергенович – *доктор экономических наук, профессор.*

Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Фарфиев Бахромжон Атхамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*

Ишкуватов Валикул Турдиевич – *доктор исторических наук, профессор.*

Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*

Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Нурматова Мукхаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*

Нарматов Нуридин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*

Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*

Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*

Атамуратов Расулжон Кадиржонович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*

Содикова Шохида Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*

Зохидов Азаматжон Альзамович – *доктор экономических наук, профессор.*

Ибрагимов Лутфулло Зиёдуллаевич – *доктор географических наук, доцент.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

Musurmanova Aynisa Musurmanovna (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

Begimkulov Uzokboy Shoimkulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Farfiyev Bakromjon Atxamdjjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistent Professor.*

Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

Atamuratov Rasuldjon Kadirkhonovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*

Sodikova Shohida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

Zokhidov Azamatjon Azamovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich – *Doctor of Geographical Sciences, Assistent Professor.*

SOTSILOGIYA

Xomitov K.Z. Qishloq ayollarini ish bilan ta'minlashning samarali tashkiliy mexanizmlari ta'sirini aniq sotsiologik baholash.....	4
--	---

JAMIYAT VA OILA

Ramatov J.S. O'zbekiston yoshlari – kelajagimiz poydevori	15
Yulchiyeva D.X. O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda amalga oshiralayotgan islohotlarning muhim ahamiyati	22
Акбаров А.А. Толерантность – это свобода в многообразии.....	31
Bo'riyeva M. Oila instituti mustahkamligiga turmush o'rtoq intellekt darajasining ta'siri.....	37
Pardayev S.A., Axatova M.Sh. Shaxsda musiqa madaniyatini shakllantirishda oilaning roli.....	45

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI

Каримова Д.М. Гендерное равенство: почему этот вопрос становится актуальным в Узбекистане	52
--	----

PEDAGOGIKA

Mavlonov B.B. O'smir yoshdagи bolalarning fazilatlarini rivojlantirishda atrof-muhit va pedagogik guruh faoliyatining ta'siri	61
--	----

IQTISODIYOT

Shayusupova N.T., Amirdjanova S.S. Relationship between employment and economic growth in Uzbekistan	75
Adilova Z.D., Umirova D.S. Modern factors in the development of regional tourism.....	89
Meliboyev A.R., Masharipov F.O'. Mehnat bozori ehtiyojlari asosida yoshlarni zamonaviy va sifatli kasb-hunarga o'qitish	98



Xomitov Komiljon Zoitovich,
*Toshkent moliya instituti,
iqtisod fanlari doktori, professor*

QISHLOQ AYOLLARINI ISH BILAN TA'MINLASHNING SAMARALI TASHKILIY MEXANIZMLARI TA'SIRINI ANIQ SOTSIOLOGIK BAHOLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq ayollarini ish bilan ta'minlashning muallif tomonidan ishlab chiqilgan samarali tashkiliy mexanizmlarinining ta'siri aniq sotsiologik baholangan. U asosida qishloq ayollarini ish bilan ta'minlashning zamonaviy turlari va vositalarini rivojlantirish, yangi ish o'rinalarini yaratish, ishsiz yoshlarni kasbga yo'naltirish, tayyorlash va qayta tayyorlashning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan.

Аннотация. В данной статье оценено социологическое влияние эффективных организационных механизмов, разработанные автором для обеспечения занятости сельских женщин. А также на основе последних социально-экономических значений раскрыта важность развития современных видов и средств обеспечение работой сельских женщин, создания новых рабочих мест, профориентации, подготовки и переподготовки безработных женщин.

Annotation. This article evaluates the sociological impact of effective organizational mechanisms developed by the author to ensure employment of rural women. Also, on the basis of recent socio-economic values, the importance of developing modern types and means of providing jobs for rural women, creating new jobs, career guidance, training and retraining of unemployed women is revealed.

Tayanch so'zlar: qishloq ayollari, ish bilan ta'minlash, samarali tashkiliy mexanizmlar, ishsizlik, bandlik, aniq sotsiologik baholash, mehnat resurslari, mehnat bozori, raqobatbardoshlik, tadbirkorlik.

Ключевые слова: сельские женщины, обеспечение работой, эффективные экономические механизмы, безработица, занятость, конкретная социологическая оценка, трудовые ресурсы, рынок труда, конкурентоспособность, предпринимательство.

Key words: rural women, employment, effective economic mechanisms, unemployment, employment, specific sociological assessment, labor resources, labor market, competitiveness, entrepreneurship.

Kirish. 2020–2021-yillarda o‘z ish faoliyatini to‘xtatgan tadbirkor ayollar soni tadbirkorlik faoliyatini boshlagan ayollar sonidan ko‘p. Buning sababi hudud, mamlakat ehtiyojidan kelib chiqib biznes rejalar tuzish, istiqbolda esa eksport mahsulot ishlab chiqarish maqsadida xotin-qizlar tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish masalasida tizimli ishlar olib borilmagandir.

Mavjud muammolar chuqur o‘rganilmagan va ularni bartaraf etish bo‘yicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqilmagan. Oqibatda respublika bo‘yicha 2020–2021-yillarda xotin-qizlar tomonidan jami 103 182 ta tadbirkorlik subyekti tashkil etilgan. Shu davrda esa 118 420 nafar tadbirkor ayol o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘lgan¹.

Ikkinchidan, 2 063 nafar nochor ayol, ijtimoiy himoyaga muhtoj 75 920 ta oila og‘ir turmush sharoitida yashayotgan 6 213 nafar xotin-qizga maqsadli yordam berish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash rejalaridagi ishlar yetarli darajada olib borilmagan.

Uchinchidan, mehnat bozoridagi holat yetarli darajada tahlil qilinmagan. Mavjud bo‘sish o‘rinlari haqidagi ma’lumotlar mutasaddi idoralar hisobotida to‘liq aks ettirilmagan.

Buning oqibatida aniq ishga joylashishga muhtoj xotin-qizlar hamda yoshlardan qatlagini aniqlash imkoniyatini beruvchi statistik ma’lumotlar yaratilmagan. Ularning ish bilan bandligini ta’minalash yuzasidan manzilli chora-tadbirlar ishlab chiqilmagan. Ihsiz va ijtimoiy faol bo‘lmagan xotin-qizlar bilan yakka tartibda ish olib borish amaliyoti yaxshi yo‘lga qo‘yilmagani sababli og‘ir sharoitda qolgan 1 132 nafar ishsiz xotin-qiz e’tibordan chetda qolgan.

Asosiy qism. “Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar maqsadi yangi barqaror ish o‘rinlarini yaratish, aholi, ayniqsa, yoshlardan ayollarning ish bilan bandligini ta’minalash, mehnat bozorida ularning raqobatbardoshligi va kasbiy darajasini oshirish kabi eng dolzarb va ustuvor vazifalarning ijrosini ta’minalash hisoblanadi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan 2019-yilning yanvar–may oylari davomida jami 15 288 nafar ishsiz va band bo‘lmagan aholi mehnat bozori ehtiyojlari asosida qisqa muddatlarda kasb-hunarga o‘qitilgan bo‘lsa, ularning qariyb 77,1 foizi (11 791 nafari) ayollar va og‘ir turmush sharoitida yashayotgan xotin-qizlar ulushiga to‘g‘ri keldi”².

**2020–2021-yillarda
o‘z ish faoliyatini
to‘xtatgan
tadbirkor ayollar
soni tadbirkorlik
faoliyatini
boshlagan ayollar
sonidan ko‘p.
Buning sababi
hudud, mamlakat
ehtiyojidan kelib
chiqib biznes
rejalar tuzish,
istiqbolda esa
eksport mahsulot
ishlab chiqarish
maqsadida
xotin-qizlar
tadbirkorligini
yo‘lga qo‘yish
masalasida
tizimli ishlar olib
borilmaganidir.**

¹ Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазириги маълумотлари.

² Умурзаков Б.Х. Хотин-кизларни текстиль-тикув цехларига жалб этиш дастурларининг ижтимоий-иктисодий аҳамияти. “Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш стратегиясининг янги босқичида инсон омили ва манфаатлари: халқаро амалиёт ва Ўзбекистон тажрибаси” мавзусидаги илмий-амалий

**Axborot
muhitining
globallashuvi,
yuqori turmush
darajasi
andozalarining
tez va keng
tarqalishi ayollar
hayotiy ehtiyojlari
muttasil ortib
borayotgani holda
ularni qondirish
imkoniyatlarining
cheklanganligi va
ular o'rtasidagi
ishsizlik
darajasining
yuqoriligi
sababli ayollarni
munosib ish bilan
ta'minlashga oid
ijtimoiy-iqtisodiy
va tashkiliy
muammolar
yanada o'tkir tus
olmoqda**

Shu bilan birga, rivojlanayotgan davlatlarda qishloq ayollarri, taxminan 43,0% ni tashkil etib, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdek muhim strategik vazifani amalga oshirishda katta hissa qo'shamoqda. Aksariyat qishloq ayollarining turmush tarzi qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslarga bevosita bog'liq bo'lib, ta'minlanish darajasiga ko'ra, turmush farovonligini belgilab beradi. Dunyo davlatlarida aholi turmush darajasining oshib borayotganiga qaramay, bir milliarddan ortiq kishi hayot uchun o'ta noqulay bo'lgan sharoitlarda, oziq-ovqat taqchilligida yashamoqda. Juda ko'p davlatlarning qishloq joylarida kambag'allik shaharlarga nisbatan ancha yuqori. Osiyo va Sahroyi Kabirning janubiy qismida joylashgan davlatlarning 2,5 milliarddan ortiq aholisi uchun asosiy manba hisoblangan mayda xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qariyb 80,0 foizi ishlab chiqariladi³.

Axborot muhitining globallashuvi, yuqori turmush darajasi andozalarining tez va keng tarqalishi ayollar hayotiy ehtiyojlari muttasil ortib borayotgani holda ularni qondirish imkoniyatlarining cheklanganligi va ular o'rtasidagi ishsizlik darajasining yuqoriligi sababli ayollarni munosib ish bilan ta'minlashga oid ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy muammolar yanada o'tkir tus olmoqda⁴.

Ayni paytda qishloq ayollarining mehnat motivatsiyasi juda kuchli bo'lib, ular maosh miqdori yuqori bo'lgan xizmat vazifalarini bajarish uchun qayta malaka oshirishga, kompyuterda ishlashni mukammal egallahsga, chet tillarni o'rganishga shayligi bilan ajralib turadi.

Qishloq ayollarli uchun yangi ish o'rinalarini yaratish hamda sohadagi muammolarni o'rganish maqsadida Qashqadaryo viloyatining Kitob, Shahrisabz; Samarqand viloyatining Pastdarg'om, Urgut; Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy, Ellikqal'a; Jizzax viloyatining Paxtakor va Zarbdor tumanlari tanlangan bo'lib, ijtimoiy mexanizmlar va uning asosiy ko'rsatkichlarini sotsiologik baholash (2-so'rovnoma) asosida aniq sotsiologik tadqiqotlar (tahlillar) o'tkazish asosiy maqsad qilib belgilangan. 2021-yilning sentabr oyida mualliflar tomonidan taklif etilgan metodika asosida aniq sotsiologik tadqiqotlar o'tkazildi. Tanlab olingan respondentlarning barchasi ayollar bo'lib, unda ishtirok etganlarning 37,8 foizi – 18–25 yoshdagilar, 32,4 foizi – 26–30 yoshdagilar, 20,3 foizi – 31–55 yoshdagilar, 9,5% foizi esa 56 yosh va undan kattalarni tashkil etgan.

So'rovnomalar o'zbek tilida tuzilib, jamlangan dastlabki so'rovnoma

конференция материаллари тўплами. – Тошкент: ТДИУ, 2019. – 111 б.

³ <https://www.un.org/>

⁴ Социология молодежи: учебное пособие. / Под ред. проф. Волкова Ю.Г. – Ростов-на-Дону: «Феникс», 2001, – С. 323.

ma'lumotlari “Microsoft Excel” dasturi yordamida qayta ishlandi. Natijada qishloq ayolarining ish bilan bandligini ta'minlashning samarali mexanizmini takomillashtirish bo'yicha iqtisodiy-ijtimoiy va tashkiliy asoslangan tavsiyalar va takliflarni o'rganishning ishonchli sotsiologik axborotlari hosil qilindi⁵.

Sotsiologik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, “**Sizningcha, qishloq ayolları iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan bandligini kamaytirish uchun quyidagi qaysi asosiy tarmoqlar yoki sohalarda yangi ish o'rinarini tashkil qilish lozim?**” degan savolga so'rvnomada ishtirok etganlar quyidagi sohalarni belgiladi: 8,5 foizi – paxtachilik-to'qimachilik klasteri, 5,2 foizi – g'allachilik klasteri, 3,2 foizi – chorvachilik klasteri, 5,5 foizi – meva-sabzavotchilik klasteri, 12,5 foizi – pillachilik klasteri, 0,5 foizi – baliqchilik klasteri, 2,5 foizi – agroturizm klasteri, 4,4 foizi – dorivor o'simliklar klasteri, 3,6 foizi – fermer xo'jaliklari, 4,0 foizi – qishloq xo'jaligi kooperatsiyalari, 6,5 foizi – qishloq xo'jaligining shaxsiy tomorqa, dehqon va boshqa sohalari, 5,4 foizi – qayta ishlash sanoati, 3,5 foizi – qurilish va qurilish materiallari tayyorlash sanoati, 8,5 foizi – sog'liqni saqlash, 9,3 foizi – maorif va ta'lim, 4,9 foizi – madaniyat va sport, 6,8 foizi – moliya-kredit tizimi, 6,4 foizi – maishiy xizmatlar va boshqa xizmat ko'rsatish sohalari, 5,9 foizi – xususiy biznes va oilaviy tadbirdorlik, 0,5 foizi – boshqa asosiy tarmoqlarda yangi ish o'rinarini tashkil qilish lozim, deb e'tirof etgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida klasterlarni tashkil etish amaliyoti natijasida paxtachilik-to'qimachilik, g'allachilik, chorvachilik, meva-sabzavotchilik, ipakchilik va boshqa turdag'i klasterlarda yangi ish o'rinarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda, respondentlarga “**Siz paxtachilik-to'qimachilik klasterida (sohasida) ayollar uchun yangi tashkil etilgan ish o'rinarida quyida qayd etilgan qaysi bir sharoitlar mayjud bo'lsa faoliyat ko'rsatmoqchisiz?**” degan savolga ular tomonidan berilgan javoblar 1-jadvalda keltirilgan.

*Mamlakatimiz
iqtisodiyotida
klasterlarni tashkil
etish amaliyoti
natijasida
paxtachilik-
to'qimachilik,
g'allachilik,
chorvachilik,
meva-
sabzavotchilik,
ipakchilik va
boshqa turdag'i
klasterlarda yangi
ish o'rinarini
tashkil etishga
alohida e'tibor
qaratilmoqda*

⁵ Холмўминов Ш.Р., Хомитов К.З., Арабов Н.У., Бобаназарова Ж.Х., Абдурамонов Х.Х. Қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлашнинг самарали ижтимоий-иктисодий механизmlари (монография). – Тошкент: “Инновацион ривожланиш” нашриёт-матбаа уйи, 2019. – Б. 252.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududida tanlangan qishloq joylarida paxtachilik-to‘qimachilik klasterida (sohasida) ayollar uchun yangi tashkil etilgan ish o‘rinlaridagi shart-sharoitlarni yaxshilash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar (respondentlarga nisbatan % da)

Chora-tadbirlar	Barcha tumanlar bo‘yicha	Shu jumladan, quyidagi tumanlar:							
		Kitob	Shahrisabz	Pastdar-g‘om	Ur-gut	Beruniy	Ellik qal‘a	Zarb-dor	Paxtakor
Mehnatimga yarasha maosh o‘z vaqtida to‘langanda	22,9	25,3	22,5	18,0	14,5	26,4	20,2	25,2	25,5
Paxta yetishtirish uchun serhosil urug‘liklar navlari, mineral va mahalliy o‘g‘itlar va suv resurslari bilan ta‘minlanganda	18,3	24,0	17,2	18,3	15,6	27,4	15,1	11,6	26,0
Paxta yetishtirishning ish o‘rinlari zamonaviy agrotexnika va texnologiyalar bilan ta‘minlanganda	10,5	15,6	15,3	16,0	19,3	15,7	12,4	13,6	23,8
Paxta tolalarini qayta ishslash va tayyor mahsulotlar tayyorlash bo‘yicha yangi ish o‘rinlarida iqtisodiy manfaatdorlik bo‘lganda	9,4	18,7	15,9	12,9	11,8	12,4	19,3	15,0	22,5
Ovqatlanish va dam olish sharoitlari yaratilganda	6,8	5,6	12,5	17,5	16,4	19,5	18,3	25,3	18,0
Ish o‘rinlarida mehnat va texnika xavfsizliklari ta‘minlanganda	5,5	19,4	16,7	16,3	10,4	9,3	2,2	16,3	6,3
Malaka oshirish va qayta tayyorlash imkoniyatlari bo‘lganda	4,3	3,6	9,3	5,3	13,2	8,3	2,3	9,2	5,4
Imtiyozli kreditlar asosida qurilgan uy-joy bilan ta‘minlanganda	23,6	10,3	8,0	10,6	13,7	12,0	10,2	12,0	23,0
Boshqa asosiy sharoitlar	2,6	1,3	1,5	2,0	1,0	1,0	2,0	1,5	1,5
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Manba: muallif tomonidan sotsiologik so‘rov natijalari asosida hisoblangan.

1-jadvalda qishloq joylarida paxtachilik-to‘qimachilik klasterida (sohasida) ayollar uchun yangi tashkil etilgan ish o‘rinlaridagi shart-sharoitlarni yaxshilash maqsadida o‘tkazilgan so‘rovlarga quyidagicha javob olindi:

- mehnatimga mos ishhaqi o‘z vaqtida to‘langanda – 22,9%;
- paxta yetishtirish uchun serhosil urug‘liklar navlari, mineral va mahalliy o‘g‘itlar va suv resurslari bilan ta‘minlanganda – 18,3%;
- paxta yetishtirishning ish o‘rinlari zamonaviy agrotexnika va texnologiyalar bilan ta‘minlanganda – 10,5%;
- imtiyozli kreditlar asosida qurilgan uy-joy bilan ta‘minlanganda – 23,6%.

Shuningdek, “mehnat qilish mobaynida ovqatlanish va dam olish sharoitlari yaratilganda” degan javobni 6,8% respondent qayd etgan bo‘lib, bunda Zarbdor (25,3%), Beruniy (19,5%), Pastdarg‘om (17,5%), Shahrisabz (12,5%) tumanlarida ish o‘rinlaridagi sharoitlarning yaxshilanishini istovchilar ko‘pchilikni tashkil etdi.

Tanlab olingan hududlarda so‘rovnoma da ishtirok etgan ayollar tomonidan **“Siz g‘allachilik klasterida (sohasida) ayollar uchun yangi tashkil etilgan ish o‘rinlarining sharoitlari yaxshilansa, qaysi birida faoliyat ko‘rsatmoqchisiz?”** degan savolga ularning 32,5 foizi moddiy rag‘batlantiruvchi ishhaqi o‘z vaqtida to‘langanda, 21,4 foizi mehnat haqining bir qismi don sifatida to‘langanda, 11,9 foizi ish o‘rinlari suv, mahalliy va mineral o‘g‘itlar hamda o‘simliklarni himoya qilish vositalari bilan ta‘minlanganda, 10,5 foizi g‘allani ekish va yig‘ishtirish bo‘yicha agrotexnologiyalarning talablariga rioya qilinganda, 6,5 foizi don mahsulotlarini qayta ishslash va tovar mahsulotlari tayyorlash bo‘yicha ish o‘rinlarida iqtisodiy manfaatdorlik bo‘lganda, 5,8 foizi ish o‘rinlari texnika va ekologiya xavfsizligi talablariga javob berganda, 4,9 foizi malaka oshirish va qayta tayyorlash imkoniyatlari bo‘lganda, 6,5 foizi boshqa asosiy sharoitlarni ko‘rsatganlar.

Keyingi yillarda meva-sabzavotchilik va uzumchilikni rivojlantirishda samarali bozor mexanizmlarining tizimli yo‘lga qo‘yilmagani, ilmiy yondashuvning yetarli emasligi tarmoqning mavjud imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmasligiga olib kelmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 1 hektar maydonda yetishtirilgan paxta xomashyosiga nisbatan uzumdan 7 baravar, gilosdan 6 baravar, yong‘oqdan 5 baravar ko‘p daromad olish imkoniyati mavjud. Bu borada sohaga bozor mexanizmlarini joriy qilish maqsadida **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-martdagি “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4239-son qarori** qabul qilindi. Jizzax, Samarqand, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarining 8 ta tumanida jami 41 ta meva-sabzavotchilik yo‘nalishidagi qishloq xo‘jaligi birlashmalari tashkil etildi. Mazkur qarorga binoan, kam ta‘minlangan oilalar bandligini ta‘minlash maqsadida xalqaro moliya institutlari mablag‘larini jalb etgan holda 2020-yilda Farg‘ona, Andijon

va Namangan viloyatlarining 22 ta tumanida 31 ta, 2021-yilda respublika bo'yicha 100 ta qishloq xo'jaligi birlashmalari tashkil etish belgilandi.

Meva-sabzavotlarning asosiy qismini ishlab chiqaruvchi dehqon xo'jaliklarida mahsulotlarni qayta ishlash va qadoqlash imkoniyatlarini oshirish qishloq ayollarining ish bilan bandligiga samarali ta'sir ko'rsatib, tanlab olingan hududlarda so'rovnomada ishtirok etgan respondentlar **meva-sabzavotchilik klasterida yangi tashkil etilgan ish o'rinalarida mehnat qilish uchun qulay bo'lgan sharoitlar** 2-jadval quyidagicha belgilangan:

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida tanlangan qishloq joylaridagi meva-sabzavotchilik klasterida yangi tashkil etilgan ish o'rinalarida mehnat qilish uchun qulay bo'lgan sharoitlar (barcha respondentlarga nisbatan, %da)

Chora-tadbirlar	Barcha tumanlar bo'yicha	Shu jumladan, quyidagi tumanlar:							
		Kitob	Shahrisabz	Past-dar-g'om	Urgut	Beruniy	Ellik qal'a	Zarb-dor	Paxtakor
Moddiy rag'batlantiradigan ish haqi to'langanda	32,7	32,5	23,4	28,5	19,1	24,4	25,0	29,4	21,6
Meva-sabzavot mahsulotlarining bir qismi imtiyozli narxlarda ishhaqi sifatida sotilganda	21,6	17,6	17,5	22,6	14,6	21,2	18,6	22,6	21,0
Meva-sabzavotlarni mavsumiy yig'ishtirish davrida sifatli ovqatlanish va dam olish sharoitlari bo'lganda	10,5	15,6	17,3	17,0	12,3	20,0	17,4	19,0	17,6
Meva-sabzavotchilik mahsulotlarini qayta ishslash ish o'rinalari sifatli milliy va innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlanganda	6,3	12,4	12,4	10,0	18,4	11,4	12,3	10,5	5,5
Mavsumiy mehnat davrida passajir transporti bilan to'liq ta'minlanganda	4,6	11,7	11,0	10,4	12,4	15,3	10,4	5,4	12,5
Uy-joy bilan ta'minlanishda imtiyozli kreditlar berilganda	21,5	4,6	10,1	6,0	19,2	12,0	9,5	5,0	10,0
Malaka oshirish va qayta tayyorlash imkoniyatlari bo'lganda	1,8	4,0	4,0	1,2	4,5	9,2	4,2	6,0	9,4
Boshqa asosiy sharoitlar	1,0	1,6	4,3	0,3	3,5	4,3	2,6	1,1	2,4
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Manba: muallif tomonidan sotsiologik so'rov natijalari asosida hisoblangan.

2-jadvalda meva-sabzavotchilik klasterida yangi tashkil etilgan ish o‘rinlarida mehnat qilish uchun qulay bo‘lgan sharoitlar “Moddiy rag‘batlantiradigan ishhaqi to‘langanda” deb belgilangan chora-tadbirlar tanlangan obyektlarda bir-biridan farqlanadi. Jumladan, Kitob tumanida 32,5%, Zarbdor tumanida 29,4%, Pastdarg‘om tumanida 28,5%, Beruniy tumanida 24,4%, Urgut tumanida esa 19,1% ni tashkil qilgan. Meva-sabzavot mahsulotlarining bir qismi imtiyozli narxlarda ishhaqi sifatida sotilishini 21,6% respondent xohlaydi, bu ko‘rsatkich Pastdarg‘omda 22,6%, Zarbdor tumanida 22,6% ni tashkil qilib, nisbatan pastroq ko‘rsatkich – 14,6% Urgut tumanida qayd etilgan.

Respondentlar “**Meva-sabzavotlarni mavsumiy yig‘ishtirish davrida sifatlari ovqatlanish va dam olish sharoitlari yaratilishi**”ni ham eng muhim ko‘rsatkichlardan biri sifatida (10,5 %) e’tirof etadi. Ayniqsa, Beruniy (20,0%), Zarbdor (19,0%), Paxtakor (17,6%), Ellikqal'a tumanlarida (17,4%) ko‘rsatilgan. Meva-sabzavotchilik mahsulotlarini qayta ishslash hamda ish o‘rinlari sifatlari milliy va innovatsion texnologiyalar bilan ta’minlanganda (6,3%) va boshqa shart-sharoitlar qayd etilgan. Bundan tashqari, qishloq aholisining ham turmush sharoitini yaxshilash, munosib turarjoy bilan ta’minalashga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgani so‘rovnomada qayd etilganini (uy-joy bilan ta’minalishda imtiyozli kreditlar berilganda 21,5%) natijadan ham ko‘rish mumkin.

Shuningdek, uy-joyga ega bo‘lishda imtiyozli kreditlar bilan ta’minalishga ehtiyoj doimo yuqori bo‘lgan, bu ko‘rsatkichlar biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlarda ham o‘z isbotini topgan (21,5 %).

Respublikada ipakchilik tarmog‘ini boshqarish tizimining tako-millashtirilishi, mazkur sohada ham yangilanishlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va innovatsiyalar kiritilishi kerakligi kuzatildi. Bir qator qilinishi kerak bo‘lgan ishlar, ya’ni ipak qurti urug‘iga, tutchilik, pilla yetishtirish, uning sifatini yaxshilash va ipak ishlab chiqarishdagi texnikaning eskirib qolgani, texnologiyada esa yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar, tayyor pilla hosillarini saqlash, tashish va qayta ishslashda maxsus texnika va texnologiyalar joriy etishda sohada yuqori sur’atni ta’minalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan bo‘lib kelmoqda (3-jadval).

3-jadvalda tanlab olingen hududlarda ipakchilik klasterida (sohasida) ayollar uchun yangi tashkil etilgan ish o‘rinlarida ayollar qanday mehnat sharoitlarini xohlashi keltirilgan:

- ularning 28,8 foizi pillani sotishdan olingen daromadlarga mos ishhaqi to‘langanda;
- 18,2 foizi mavsumiy mehnat shartnomalari tuzilganda;

**Respublikada
ipakchilik
tarmog‘ini
boshqarish
tizimining tako-
millashtirilishi,
mazkur
sohada ham
yangilanishlarning
bosqichma-bosqich
amalga oshirilishi
va innovatsiyalar
kiritilishi kerakligi
kuzatildi**

3-jadval

Ipakchilik klasterida (sohasida) ayollar uchun yangi tashkil etilgan ish o‘rinlarida quyidagi mehnat sharoitlari qaysi biri yaratilgan taqdirda mehnat qilishni xohlaysiz? (barcha respondentlarga nisbatan, % da)

Mehnat sharoitlari	Barcha tumanlar bo‘yicha	Shu jumladan, quyidagi tumanlarda:							
		Kitob	Shahrisabz	Past-dar-g‘om	Urgut	Beruniy	Ellik qal‘a	Zarb-dor	Pax-takor
Pillani sotishdan olingen daromadlarga mos ishhaqi to‘langanda	28,8	28,2	27,4	28,3	15,3	20,4	26,6	24,1	14,6
Mavsumiy mehnat shartnomalari tuzilganda	18,2	22,6	20,6	10,4	12,8	15,9	12,5	11,5	13,5
Pilla urug‘lari serhosil va kasallikka kam chalinadigan navlari bilan to‘liq ta’milanganda	10,3	13,5	17,4	13,9	12,2	18,7	12,5	14,5	16,5
Pilla qurti boqish uchun ish o‘rinlari to‘liq yaratilib, tut barglari va maxsus xonalar yoki binolar bilan ta’milanganda	8,5	10,7	11,5	20,7	19,6	13,8	14,6	12,4	17,5
Pilla yetishtirishda elektr energiyasi va isitish-sovitish tizimi xizmatlari bilan yetarli darajada ta’milanganda	5,6	9,5	10,5	7,6	15,1	12,7	12,8	12,3	12,8
Yangi ish o‘rinlari tajribali pillakorlarga biriktirilganda	3,2	7,7	10,3	2,3	12,5	10,0	12,5	10,3	10,5
Tayyor pilla hosillarini saqlash, tashish va qayta ishlashda maxsus texnika va texnologiyalar joriy etilganda	9,5	6,5	5,7	6,5	8,6	10,8	12,5	9,5	8,0
Malaka oshirish va qayta tayyorlash imkoniyatlari yaratilganda	8,4	5,8	4,5	9,5	5,6	7,5	-	8,3	7,4
Boshqa asosiy sharoitlar	7,5	6,0	4,0	6,0	5,0	2,1	8,5	9,0	0,2
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Manba: muallif tomonidan sotsiologik so‘rov natijalari asosida hisoblangan.


- 10,3 foizi pilla urug‘lari serhosil va kasallikka kam chalinadigan navlari bilan to‘liq ta’milanganda;
- 8,5 foizi pilla qurti boqish uchun ish o‘rinlari to‘liq yaratilib, tut barglari va maxsus xonalar yoki binolar bilan ta’milanganda;
- 3,2 foizi yangi ish o‘rinlari tajribali pillakorlarga biriktirilganda;
- 9,5 foizi tayyor pilla hosillarini saqlash, tashish va qayta ishlashda maxsus texnika va texnologiyalar joriy etilganda;

– 8,4 foizi malaka oshirish va qayta tayyorlash imkoniyatlari yaratilganda;

– 7,5 foizi boshqa asosiy sharoitlarni belgilagan.

So‘rovnoma “**Sizningcha, norasmiy ish bilan bandlik va ishsizlikni kamaytirish maqsadida yangi tashkil etilgan ish o‘rinlarida qishloq ayollar qaysi zamonaviy asosiy kasb-hunarlar yoki mutaxassisliklarga ega bo‘lishi lozim?**” degan savolga respondentlar tomonidan berilgan javoblar 1-rasmida o‘z aksini topgan.

Norasmiy ish bilan bandlik va ishsizlikni kamaytirish maqsadida yangi tashkil etilgan ish o‘rinlarida qishloq ayollar qaysi zamonaviy asosiy kasb-hunarlar yoki mutaxassisliklarga ega bo‘lishi bo‘yicha istaklari o‘rganilganda ular tomonidan 1-rasmida keltirilgan natijaga erishildi. Shuningdek, ayollar agrokimyoviy himoyachi, veterinariya shifokori, giyohshunos, agroturopertor, madaniyatshunos, tadbirkor, internet provayderi kabi mutaxassisliklarni egallashni ham xohlashi aniqlandi.



Norasmiy ish bilan bandlik va ishsizlikni kamaytirish maqsadida yangi tashkil etilgan ish o‘rinlarida qishloq ayollar qaysi zamonaviy asosiy kasb-hunarlar yoki mutaxassisliklarga ega bo‘lishi bo‘yicha istaklari o‘rganilganda ular tomonidan 1-rasmida keltirilgan natijaga erishildi

1-rasm. Qishloq ayollarining yangi tashkil etilgan ish o‘rinlarida zamonaviy kasb-hunarlar va mutaxassisliklar egallash bo‘yicha istaklari.

Manba: muallif tomonidan sotsiologik so‘rov natijalari asosida hisoblangan.

Tanlangan hududlarda qishloq ayollarning yangi tashkil etilgan ish o‘rinlarida zamonaviy kasb-hunarlar va mutaxassisliklarni egallash bo‘yicha istaklari bir-biridan farqlanishini ko‘rishimiz mumkin:

- tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni Pastdarg‘om (15,8 %) va Urgut (12,%) tumanlari;
- shifokor, o‘qituvchi mutaxassisliklariga ega bo‘lishni Kitob (15,4 %) va Shahrisabz (13,7 %) tumanlari;

– agroturooperator, agroturizm menejeri, issiqxona texnologi Zarbdor (18,5 %) va Paxtakor (14,2 %) tumanlari;

– o‘qituvchi, shifokor, kompyuter dasturchisi internet provayderi singari kasblarni Beruniy (12,9 %) va Ellikqal'a (11,6 %) tumanlari.

So‘rov natijalariga ko‘ra, 18–25 yoshdagi ayollar ko‘proq tadbirkor, iqtisodchi-buxgalter, ish boshqaruvchi, shifokor, o‘qituvchi, kompyuter dasturchisi, 31–55 yoshdagi ayollar esa tikuvgi, issiqxona texnologi, sut sog‘uvchi kabi kasb-hunarlar egallash istagini bildirgan. 56 yosh va undan katta yoshdagi ayollarning har ikkinchisi (42,6 foizi) ko‘proq pillakorlik, polizchilik, giyohshunoslik kabi kasb-hunarlarni egallab, qo‘sishma daromad topishni istaydi.

Xulosa. Shunday qilib, aniq sotsiologik tadqiqotlar natijalari asosida respublikamizning tanlangan tumanlarida qishloq ayollarini ish bilan ta’minalashning samarali tashkiliy mexanizmining asosiyo ko‘rsatkichlarini o‘rganuvchi yangi axborotlar fondi hosil qilindi. Ular mehnat resurslari bilan ko‘p va kam ta’minalangan qishloq hududlaridagi aholi, asosan, ayollarni ish bilan ta’minalashning samarali tashkiliy mexanizmini shakllantirishga yo‘naltirilgan tavsiyalar va takliflar ishlab chiqishda muhim axborot manbalari bo‘lib xizmat qiladi. Unga ko‘ra, qishloq ayollarining ijtimoiy va iqtisodiy mavqeyini yaxshilash uchun yangi ish joylarini tashkil etish chora-tadbirlarini takomillashtirish zarur. Shu orqali qishloq ayollarini ish bilan ta’minalash, ularning daromadini ko‘paytirish, kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish, ya’ni mehnat bozorida to‘liq raqobatbardosh kadrlarga aylantirish imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги маълумотлари.
2. Умурзаков Б.Х. Хотин-қизларни текстиль-тикув цехларига жасалб этиши дастурларининг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти. “Ўзбекистон Республикасини ривожлантириши стратегиясининг янги босқичида инсон омили ва манбаатлари: ҳалқаро амалиёт ва Ўзбекистон тажрибаси” мавзусидаги илмий-амалий конференция материяллари тўплами. – Тошкент: ТДИУ, 2019. – 111 б.
3. <https://www.un.org/>
4. Социология молодежи: учебное пособие. / Под ред. проф. Волкова Ю.Г. – Ростов-на-Дону: «Феникс», 2001, – С. 323.
5. Холмюминов Ш.Р., Хомитов К.З., Арабов Н.У., Бобаназарова Ж.Х., Абдурамонов Х.Х. Қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлашнинг самарали ижтимоий-иқтисодий механизmlари (монография). – Тошкент: “Инновацион ривожланиши нациёнт-матбаа уйи”, 2019. – Б. 252.

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA
IJTIMOIY HAYOT
СЕМЬЯ, ЖЕНШИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE**

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

3/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-soni
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.
Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.
The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions
of makhalla, family and gender equality.*

MUASSIS:

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**

Jo‘rayeva M., Razzakova N.,

Sobirova E., Jabborov U.

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 21.08.2022.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilov ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangihayot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.